

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

research involving young EFL learners. In planning activities, educators should establish explicit roles or objectives for group members to guarantee active participation from each student. Group-oriented, learner-centered activities utilize the social dimension of learning and are consistent with Vygotsky’s sociocultural theory, which posits that peer interaction serves as a catalyst for development.

References:

1. Biggs, J., & Tang, C. (2020). *Teaching for quality learning at university* (4th ed.). McGraw-Hill.
2. Carless, D. (2021). Task-based language assessment: Principles, theories, and practices. *Language Testing*, 38(4), 579–598.
3. Dewey, J. (2020). *Experience and education* (Reprint edition). Free Press.
4. Eshkuvatova, K. L., & Ilhomova, K. M. (2022). Linguistic problems of literary translation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 864–867.
5. Holmuradova, L. Z. (2020). Этническая история французского народа и его образ жизни: лингвокультурологический аспект. *Вестник Челябинского государственного университета*, 311(20), 114–116.
6. Holmuradova, Leyla Eshkuvatovna. (2020). The comparative analysis of the picture of the world in the English and French phraseology. *Евразийский Союз Ученых*, 5–7(74). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-comparative-analysis-of-the-picture-of-the-world-in-the-english-and-french-phraseology> (дата обращения: 09.11.2025).
7. Long, M. H., & Crookes, G. (2021). Task-based language teaching and learning: A critical review. *Applied Linguistics*, 42(4), 715–738.
8. Rogers, C. (2021). *Freedom to learn: A view of what education might become*. Merrill.
9. Vygotsky, L. S. (2020). *Mind in society: The development of higher psychological processes* (Reprint edition). Harvard University Press.

JAMIYAT IQTISODIY TARAQQIYOTIDA TURIZMNING O‘RNI

Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g‘li
O‘zMU Jizzax filiali o‘qituvchisi

Begbutayeva Shahlo Beknazar qizi
O‘zMU Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning jamiyat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashdagi va rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan bo‘lib, turizm sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari mulohaza qilingan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat iqtisodiy hayoti, milliy iqtisodiyot, turizm, sayohat, turizm industriyasi, sayyoh.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investisiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo‘lgan sohadir. Boshqa sohalarda, jumladan havo, temiryo‘l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o‘sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo‘lsa bimalol turizmni rivojlantirish mumkin.

Turizm - fransuzcha tour- sayr, sayohat, sayyohlik- sayohat qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsnig doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1yil muddatga jo‘nab ketish tushuniladi.

Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo‘yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o‘rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo‘jaligidan o‘zib ketdi. Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini va quvvatni ko‘p sarf qiladigan texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko‘pgina xizmat ko‘rsatuvchi sohalarda bir-biri bilan uzviy bog‘liq ravishda rivoj topmog‘i lozim.

Ko‘pgina mamlakatlarda turizm davlat iqtisodiyotining rivojlangan sohasi hisoblanadi. Chunki turli mamlakatlarga sayohat qilishni istamaydigan inson bo‘lmasa kerak. Bugungi kunda jahon turizm bozori qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir davlat o‘z kelajagi va rivoji uchun sarmoya kiritishi zarur. Dunyoda ish bilan band aholining har o‘ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda. Shu sababli ham eng ko‘zga ko‘rinadigan soha turizm sohasi hisoblanadi.

Hammamizga ma’lumki bir necha yillar davomida butun dunyoda turizm sohasi rivojlanib kelmoqda. Har bir davlatning ichki va tashqi iqtisodiyatini mana shu turizm sohasi yuksak darajalarga olib chiqmoqda. Har bir davlat o‘z kelajagi va rivoji uchun mana shu sohaga sarmoya ya’ni investitsiya kiritmoqda. Sarmoya kiritilmagan ish hech qachon rivojlanmaydi, u ishda yuksaklik bo‘lmaydi.

Turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi.

Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5%ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10% aholi turizm sohasi bilan band. COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talofat ko‘rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda xalqaro turizm 72%ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990-yil darajasiga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd dollar miqdorida eksport daromadlari yo‘qotildi.

Turizm turistlarga xizmat ko‘rsatishga aloqador bo‘lgan tarmoqlarni qamrab oluvchi o‘ziga xos dam olish sanoati hisoblanadi. Turizm sohasidagi hamkorlik xo‘jalik jamoat ishlab chiqarishga aholining band bo‘lmagan yoki qisman band bo‘lgan qatlamlarini jalb qilib, mehnat resurslaridan to‘liq va oqilona foydalanish muammosini hal qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa sanoati yaxshi rivojlanmagan mintaqalar uchun muhimdir. Turizm sohasidagi hamkorlik iqtisodiy imkoniyatlari

nisbatan yuqori emasligi bilan farqlanuvchi ayrim mintaqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, albatta uning bir tarmog‘i turizm bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir davlat o‘z yurtini butun dunyoga tanitish uchun ham o‘zining turizm sohasini yetarli ehtiyojlar bilan ta‘minlaydi.

Biz bu maqolani yoritib berish jarayonida turizmning jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o‘rni muhim ekanligiga amin bo‘ldik. Shunday ekan, biz qanday sohaga qiziqishimizdan qat‘iy nazar turizm sohasi bilan o‘zimizning hayotiy faoliyatimizni bog‘lashimiz zarur. So‘nggi yillarda turizm sohasiga qaratilayotgan e‘tibor juda ham katta.

Turizm sohasida hamkorlik qilish orqali tarmoqning jadal rivojlanishi, uning iqtisodiy ahamiyatining o‘sishi turistik xizmat sohasining katta foyda keltira olishi, bu sohaga sarmoyalarni ko‘plab sarflanishiga olib keldi. Mablag‘ni ko‘p talab qilishiga qaramay, turistik sohaga sarflangan sarmoya juda foydalidir, chunki u o‘zini nisbatan tez qoplaydi. Turistlardan olinadigan pul tushumlari daromadga aylanadi va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida muomalada bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год.
<https://www.interfax.ru>
2. A.Abduvohidov, F.Qutlimurotov. - Turizm iqtisodi. - TDIU, 2010 y. - 4 b.
3. Nurniyozov F. “Turizmning – iqtisodiyotdagi o‘rni va uning hisobini tashkil etish” mavzusidagi maqola.
4. Islom X. Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi //Pedagog respublika ilmiy jurnali. – 2023. – T. 15.
5. Hasilmurodov I. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. – 2022.
6. Xamitolim o‘g‘li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. “//Mantiq ilmini o‘rganishning ahamiyati”. Zamonaviy ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. – 2022.
7. Xamitolim o‘g‘li X. I. O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati //Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021.
8. Xamitolim o‘g‘li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. “Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili”. “Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil.
9. Islam H. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – C. 11.